

**MAMLAKATIMIZ OLIMLARI TOMONIDAN KOGNITIV
RIVOJLANISH MUAMMOSI**

*Aniq va ijtimoiy fanlar universitet iljtimoiy fanlar fakulteti 2-bosqich
magistr*

Bobomurodova Umida Otabek qizi

Tel nomer: 906097537 [Gmail:ubobomurodova176@gmail.com](mailto:ubobomurodova176@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlarda kognitiv rivojlanishning psixologik xususiyatlari batafsil tahlil qilingan. Kognitiv rivojlanishning o'smirlik davridagi o'zgarishlari, uning aqliy faoliyat, idrok, xotira va qaror qabul qilishdagi ta'siri ko'rib chiqilgan. O'smirlarning tafakkur jarayonlaridagi rivojlanish va murakkablashtirishning psixologik mexanizmlari, shuningdek, ularning intellektual rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy va madaniy omillar tahlil qilingan. Ushbu maqola o'smirlarda kognitiv rivojlanishni chuqur tushunish uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: O'smirlar, kognitiv rivojlanish, psixologik xususiyatlar, tafakkur, idrok, xotira, qaror qabul qilish, intellektual rivojlanish, ijtimoiy omillar, ta'lim, o'z-o'zini anglash.

Abstract: This article provides a detailed analysis of the psychological characteristics of cognitive development in adolescents. The changes in cognitive development during adolescence, including its impact on mental activity, perception, memory, and decision-making, are explored. The psychological mechanisms behind the development and complexity of adolescent thinking processes, as well as the social and cultural factors influencing intellectual growth, are examined. This article serves as an important scientific resource for understanding cognitive development in adolescents.

Keywords: Adolescents, cognitive development, psychological characteristics, thinking, perception, memory, decision-making, intellectual

growth, social factors, education, self-awareness.

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются психологические особенности когнитивного развития подростков. Изменения когнитивного развития в подростковом возрасте, влияние на умственную активность, восприятие, память и принятие решений анализируются в контексте данного этапа развития. Обсуждаются психологические механизмы, стоящие за развитием и усложнением мыслительных процессов подростков, а также социальные и культурные факторы, влияющие на интеллектуальный рост. Эта статья служит важным научным источником для понимания когнитивного развития подростков.

Ключевые слова: Подростки, когнитивное развитие, психологические особенности, мышление, восприятие, память, принятие решений, интеллектуальный рост, социальные факторы, образование, самосознание.

Psixologik manbalarda ko'rsatilishicha, psixikaning eng muhim xususiyati shundan iboratki, inson tashqi taasurotlarning aks ettirilishidan o'zining keyingi faoliyatida, xatti-harakatlarida doimo foydalanadi va ijodiy yondashuvi natijasida ba'zi bir o'zgarishlar kiritadi. Insonda shaxsiy tajriba, ko'nikma, malaka va bilim ko'lami orta borishi hisobiga faoliyat hamda xulq-atvor tobora murakkablashib, yangi mazmun, yangi sifat kasb eta boshlaydi. Ma'lumki, agar tashqi olamning bosh miya katta yarim sharlari qobig'ida xosil bo'ladigan obrazlari, timsollari va ularning izlari yo'qolib ketaversa, tajribaning saqlanishi, bilimlarning boyishi, murakkablashishi, muayyan tartibga kelishi, qaytatdan jonlanishi mutloqo mumkin bo'lmas edi. Modomiki shunday ekan, mazkur obrazlar bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'lanib, asta-sekin mustashkamlanib, miya qobig'ida puxta saqlanib qoladi, shu bilan birga, hayot va faoliyatning muayyan talablariga muvofiq ravishda qaytadan jonlanadi, avvalgi holatini boshqatdan namoyon qiladi.¹ Haqiqattan ham tashqi

¹ E.G'oziyev Psixologiya mutaxassisligi uchun o'quv qo'llan II kitob Toshkent"Universitet"-2002, 71-88 bet

omillar natijasida bizning faoliyatimiz va harakatlarimizda ma'lum o'zgarishlar yuzaga keladi. Hayotimiz davomida orttirilgan shaxsiy tajribalarimiz, bilimlarimiz, ko'nikmalarimiz natijasida esa nafaqat dunyoqarshimiz, balki, xulq-atvorimizda o'zgarishlar yuzaga keladi, ma'lum xulq-atvorimizni to'g'irlashimi, ma'lumlaridan voz kechishimiz, ma'lumlarini esa shakllantirishimiz mumkin.

Hozirgi davrda qo'llanib kelinayotgan adabiyotlarda xotiraga mana bunday tarzda ta'rif berilib kelinmoqda: "Individning o'z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi" xotira deb ataladi. Lekin mazkur ta'riflarni tahlil qilgan professor E.G.G'oziyev tomonidan xotira tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi. "Xotira atrof-muhitdagi voqelik (narsa)ni bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va faol holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, unutish hamda rnnish hissidan iborat psixik jarayon. Alohida va umurniylik namoyon qiluvchi ijtimoiy hodisa barcha taassurotlarni ijobiy qayta ishlashga yo 'naltirilgan mnemik faoliyatdir". Shuni ta'kidlash joizki, keltirilgan mazkur ta'rif xotiraning murakkab, keng qamrovli jihatlarini to'la ta'kidlash imkoniyatiga ega [1].

Xotira sohasida quyidagi asosiy jarayonlar: esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bir-biridan farq qilinadi. Bu jarayonlar faoliyatda tarkib topadi va belgilanadi. Ma'lum materialni esda olib qolish hayot faoliyati davomida individual, ya'ni shaxsiy tajribani to'plash bilan bog'liqdir. To'plangan tajribadan keyingi faoliyatda foydalanish qayta esga tushirishni talab qiladi. Ma'lum materialning faoliyatda qatnashmay qolishi yoddan chiqarishga olib keladi [1]. Deylik, bugun o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga yangi mavzu o'tildi. O'tilgan mavzuni eslab qolish va esda saqlash har bir o'quvchining individual xususiyatlariga bog'liq hisoblanadi. O'quvchining faoliyati davomida zarur vaziyatda o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lumotdan foydalanishi uni qayta esga tushurish jarayoni hisoblanadi, aksincha o'quvchining faoliyati davomida ushbu ma'lumotlar kerak bo'lmasa yoddan chiqarishga olib keladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ayrim darsliklarda xotira turlari turlicha klassifikasiya qilinadi:

E.G'oziyev tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanmasida xotira turlari quyidagicha klassifikasiya qilingan.

1. Ruhiy faoliyatning faolligiga ko'ra:

- a) harakat yoki motor harakat xotirasi;
- b) obrazli xotira;
- v) his-tuyg'u yoki hissiyot xotirasi;
- g) so'z-mantiq xotira.

2. Ruhiy faoliyatning maqsadiga binoan:

- a) ixtiyorsiz;
- b) ixtiyoriy;
- v) mexanik.

3. Ruhiy faoliyatning davomiyligiga ko'ra:

- a) qisqa muddatli xotira;
- b) uzoq muddatli xotira;
- v) operativ (tezkor) xotira.

4. Ruhiy faoliyat qo'zqatuvchisining sifatiga ko'ra:

- a) musiqiy;
- b) eshitish xotirasi.

5. Ruhiy faoliyatning inson yo'nalishiga qarab:

- a) fenomenal;
- b) kasbiy [1].

Psixologiya fanida tafakkur turlari topshiriq xususiyatiga, fikr yoyiqligiga, fikrning originallik davajasiga qarab, quyidagicha shartli klassifikasiya qilinadi.

Professor E.G'.G'oziyevning "Umumiy psixologiya" darsligida tafakkur turlari quyidagicha klassifikasiya qilinadi:

Tafakkur turlari:

Shakliga ko'ra: ko'rgazmali-harakat, ko'rgazmali-obrazli

Topshiriq xarakteriga ko'ra: nazariy, amaliy, ixtiyorsiz, ixtiyoriy

Fikr yoyiqligiga ko'ra: konkret, abstrakt, realistik, autistik, intuitiv, diskursiv

Fikrning originallik darajasiga ko'ra: reproduktiv, produktiv, ijodiy, vizual, fazoviy

V.Karimovanning "Psixologiya" o'quv qo'llanmasida tafakkur turlari quyidagicha klassifikasiya qilinadi:

Shakliga ko'ra: ko'rgazmali-harakat, ko'rgazmali-obrazli, mantiqiy

Ko'riladigan masalaning xarakteriga ko'ra: nazariy, amaliy, ijodiylik

Elementiga ko'ra: konvergent, divergent

Yangiligi va noyobligiga ko'ra: reproduktiv, produktiv (ijodiy).²

O'quvchilarning o'quv predmetiga munosabati, unga diqqat bilan qarash ko'p jihatdan darsda o'qituvchining o'quv materialini jonli, emotsional, qiziqarli, tushunarli, shu bilan birga to'liq va chuqur o'qita bilishga bog'liq. Bu talablarga rioya qilmaslik darsda o'quvchilarning parishonligiga yoki ikkinchi darajali qiziqishlarning paydo bo'lishiga olib keladi. O'smirlarda chuqur, barqaror qiziqishni tarbiyalash, o'qitishning mazmunini jiddiy o'ylab ko'rilganligi ularda diqqatni tarbiyalashning zaruriy sharti hisoblanadi. Bu shart-sharoitlarga rioya qilinsa, o'smir diqqatini boshqarishga halal beradigan ba'zi impulsiv (ixtiyorsiz) harakatlarga qaramay. o'z diqqatini ixtiyoriy ravishda boshqarish va to'xtab turish mumkinligini tezda egallab oladi. U o'zi uchun qiziqarsiz va qiyin ishni diqqat bilan bajarish zarur bo'lsa, o'zini bu ishga majbur eta oladi. Masalan, hamma predmetlardan beriladigan vazifalarga nisbatan o'smirlarda kichik maktab yoshidagi bolaga qaraganda diqqatning tashqi ifodasi ham o'zgaradi. Agar kichik yoshdagi maktab o'quvchining yuz ifodasi va gavda holati uning qanchalik

²F.I.Xaydarov. N.I.Xalilova Umumiy psixologiya darslik Toshkent-2010, 199-201 bet

diqqatliligini aniq belgiiab bersa, o'smir esa o'zining diqqatsizligini yashira oladi. Faqat o'qituvchining kuzatuvchanligi orqali buni aniqlashi mumkin deb fikr bildirishgan N.Xalilova va F.Xaydarov.³

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, kognitiv rivojlanish muammosi keng qamrovli bo'lib, nafaqat mamlakatimiz olimlari tomonidan balki butun dunyodagi olimlar tomonidan uzoq vaqt davomida o'rganilgan va hozirgacha o'rganib kelinmoqda. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, olimlarning kognitiv rivojlanish jarayoniga nisbatan fikrlari va qarashlari turlicha bo'lib, ularning o'rtasida ma'lum tavofutlar, bir-birining fikrlarini inkor qilish yoki aksincha nazariyalarga qo'shimcha qilinganlik holatlarini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. E.G'oziyev Psixologiya mutaxassisligi uchun o'quv qo'llan II kitob Toshkent"Universitet"-2002, 71-88 bet
2. F.I.Xaydarov. N.I.Xalilova Umumiy psixologiya darslik Toshkent-2010, 199-201 bet
3. F.I.Xaydarov. N.I.Xalilova Umumiy psixologiya darslik Toshkent-2010, 121-127-bet

³F.I.Xaydarov. N.I.Xalilova Umumiy psixologiya darslik Toshkent-2010, 121-127-bet